

NOTO'QIMA MATOLARDAN SPORT KIYIM TO'PLAMLARINI ISHLAB CHIQUISH UCHUN OLIB BORILGAN MARKETING TADQIQOTLARI VA UNING TAHLILI

Z.R.Kenjayeve

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi I.C.H.T.U.

+998932102396 ziyodakenjayeve5@gmail.com

Annotatsiya: To'qilmagan matolar yuqori sifati va kiyim kechak mahsulotlariga mosligi tufayli tayyor kiyim kechak jarayonida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Mamlakatimizda ham noto'qima matolardan ayollar sport kiyimini ishlab chiqarishni kengaytirish.

Kalit so'zlar: Noto'qima mato, trikotaj, to'qilgan mato, mato, ketma-ketlik, kiyim-kechak, xususiyatlar.

Annotation: Non-woven fabrics are increasingly used in the finished garment process due to their high quality and compatibility with clothing products. We need to expand the production of non-woven fabrics in our country, to study the properties of non-woven fabrics for clothing and use them for clothing.

Keywords: Nonwovens, Knitwear, Knitted Fabrics, Fabrics, Sequences, Clothing, Feature.

Ayollarning sport kiyimiga bo'lgan extiyoj va talablarni o'rganish maqsadida marketing so'rovnoma savollari test shaklida tuzildi (2-ilova).

Marketing so'rovnomasi 250 nafar ayol-qizlar o'rtasida olib borildi. Ularning aksariyati ishbilarmon, o'qituvchi va tibbiyot xodimlaridan iborat. Ulardan 60 nafari 26 yoshda, 59 nafari 27 yoshda, 22 nafari 35 yoshda, 35 nafari 40 yoshda, 44 nafari 45 yoshda va 30 nafari 50 yoshda bo'lib, 200 ta o'zbek, 35 ta rus va 15 ta tatar millatidan.

O'tkazilgan so'rovnomalarning eng yuqori natijalari quyidagilardan iborat bo'ldi (2-ilova):

- sport kiyimiga bo'lgan extiyoj – 75,2%;
- trikotaj matolaridan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga – 48%;
- trikotaj+plashli matolar kombinatsiyasi – 39,2%;
- kombinatsiyalashgan matolardan badan tarbiya sport turiga – 44,4%;
- noto'qima va trikotaj kombinatsiyasidagi sport kiyimini iste'moliga – 39,2%;
- zamonaviy moda yo'nalishida kiyinish – 26%;
- sport kiyimini ekspluatatsiyaga chidamliligi – 34,8%;


2.1-jadval

So'rovnoma bo'yicha foizli ko'rsatkichlar

O'tkazilgan tadqiqotning so'rovnomasi va (%) ko'rsatkichi	Natijalar ko'rsatkichi
---	------------------------


Qanday kiyimlarga xoxshingiz bor?

- a. Ishbilarmon – 6%
- b. Kundalik – 8%
- c. Bashang – 6,8%
- d. Sport – 75,2%
- e. Uy kiyimi – 4%




Trikotaj to'qima matolaridan qanday kiyimlar ishlab chiqarilishini xoxlaysiz?

- a. Sport – 48%
- b. Yoshlar kiyimi – 40%
- c. Uy kiyimi – 6%
- d. Klassik – 6%
- e. Romantik – 0




Noto'qima va trikotaj matolarining uyg'unlashtirish asosida aynan qaysi turdagi sport kiyim to'plamlarini ishlab chiqarish mumkin?

- a. Voleybol – 12%
- b. Futbol – 6,8%
- c. Badan tarbiya – 44,4%
- d. Dam olish – 36,9%



Sport kiyim to'plamini aynan qanday matolar kombinatsiyasida ishlab chiqish mumkin deb o'ylaysiz?

- a. tabiiy tolali trikotaj+noto'qima – 39,2%
- b. sun'iy tolali trikotaj+plashlik – 21,6%
- c. tabiiy tolali trikotaj+plashlik – 24,8%
- d. sun'iy tolali trikotaj+noto'qima – 14,4%



Sport kiyimida Siz uchun eng muhim narsalar nima?


a. Eksploatasiya jarayoniga qulaylik – 34,8%

b. Kiyimni qomatga mosligi – 25,6%

c. Zamonaviyligi – 17,6%

d. Matoning naqshi va turi – 22%

e. Fikringiz – 0



Sport kiyimining qaysi joylariga noto'qima mato qo'llash mumkin deb o'ylaysiz?


a. yoqasi – 16,8%

b. yeng manjeti -17,2%

c. cho'ntagi – 18%

d. cho'ntak qopqoq – 16%

e. ixtiyoriy – 24%



Noto'qima va trikotaj matolar kombinatsiyasidan qanday sport kiyim to'plamlariga extiyojingiz bor?


a. kitel+triko - 27,2%

b. top+triko – 18,4%

c. futbolka+kalta triko – 14,4%

d. kitel+triko+futbolka – 24%

e. farqi yo'q – 16%



Sport kiyimi qanday bichimda bo'lishi kerak?


a. keng – 22%

b. yarim yopishgan – 24%

c. yopishgan – 22%

d. farqi yo'q – 24,8%

e. etak tomonga kengaygan – 7,2%



- sport kiyimidagi ayrim detallarda noto'qima matolarning qo'llanilishi bo'yicha – 24%;
- ixtiyoriy rang gammasi – 30,8%;
- kitel+triko kiyim to'plamlariga bo'lgan extiyoj – 27,2%;
- sport kiyim bichimiga bo'lgan farqsizlik - 24,8%

Xulosa qilib aytganda, sport kiyimlariga xalq extiojlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan marketing tadqiqotlari natijalarining asosida noto'qima va trikotaj matolarining

uyg'unligidagi yangi kiyim eskiz modellarini ishlab chiqish vazifasi oldimizga maqsad qilib belgilab olindi.